

XORIJIY MAMLAKATLAR QONUNCHILIGIDA KAM AHAMIYATLI QILMISHLAR MASALASI

Shavkatova Shahzoda Shavkat qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 24-22-guruh o‘quvchisi

Telefon: +998941761769

shavkatovashakhzodabonu@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada muallif jinoyat huquqida jinoyatlarni istisno qiladigan holatlardan biri sifatida kam ahamiyatli qilmishlar institutining xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi o‘ziga xosliklari xususida qisqacha fikrlar yuritgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, kam ahamiyatli qilmishlar, jinoyat tarkibining alomatlari, ijtimoiy xavfli, jinoyatlarni istisno qiladigan holatlar, harakat yoki harakatsizlik.

Аннотация: в данной статье автор сделал краткие размышления об особенностях института малозначительных деяний в законодательстве зарубежных стран как одного из обстоятельств, исключающих преступления в уголовном праве.

Ключевые понятия: преступление, малозначительные деяния, признаки состава преступления, общественно опасные, исключающие преступления обстоятельства, действие или бездействие.

Abstract: In this article, the author made brief reflections on the peculiarities of the institution of minor acts in the legislation of foreign countries as one of the circumstances excluding crimes in criminal law.

Key concepts: a crime, minor acts, signs of a crime, socially dangerous circumstances excluding crimes, action or inaction.

Jinoyat huquqida jinoyatlarni istisno qiladigan holatlar mavjud bo‘lib, ulardan biri kam ahamiyatli qilmishlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 36-moddasida kam ahamiyatli qilmishlar haqidagi norma belgilangan. Unga ko‘ra, garchi ushbu kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.



Kam ahamiyatli qilmishlar haqida o‘rganish jarayonida o‘z qonunchiligidizda belgilangan me’yorlardan tashqari xorijiy davlatlar tajribasida kam ahamiyatli qilmish instituti haqida ham qanday qoidalar ko‘rsatilganligini ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Jumladan, Armaniston Respublikasi jinoyat kodeksining 18-moddasi 2-qismida kam ahmiyatli qilmish ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra amaldagi kodeksda jinoyat deb nazarda tutigan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa ham o‘zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan, ya’ni jismoniy yoki yuridik shaxsga, jamiyatga yoki davlatga jiddiy zarar etkaza olmaydigan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat deb hisoblanmaydi. Yuqoridagi normaga asosan xulosa qiladigan bo‘lsak, Armaniston jinoyat qonunchiligidida biznig milliy qonunchiligidizda yo‘q hisoblangan kam ahamiyatli qilmishni chegaralovchi me’zonlar joriy qilingan ekanligi, ya’ni jismoniy yoki yuridik shaxsga, jamiyatga yoki davlatga jiddiy zarar etkaza olmaydigan harkat yoki harakatsizlikni kam ahmiyatli qilmish deb topishar ekan.

Gruziya jinoyat kodeksining 7-moddasi 2-qismida kam ahamiyatli qilmish haqida izoh berilgan. Unga ko‘ra sodir etilgan qilmish jinoyat deb hisoblanmaydi amadagi kodeksda mavjud jinoyat alomatlari formal jihatdan mavjud bo‘lsa ham agar o‘sha qilmish kam ahmiyatliligi bilan jinoiy javobgarlikni vujudga keltirmaydigan va zarar yetkazish xavfini vujudga keltirmaydigan qilmish kam ahamiyatli deb topiladi. Demak, Gruziya qonunchiligi ushbu norma orqali kam ahamiyatli qilmish o‘zida sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish ehtiyojini vujudga keltirmaydigan va o‘sha qilmish o‘z navbatida zarar yetkazish xavfini vujudga keltirmasligi lozimligini ta’kidlagan.

Qirg‘iziston Respublikasining jinoyat kodeksning 8-moddasi 2-qismida qilmish o‘zida jinoyat kodeksining maxsus qismidagi jinoyat tarkibining alomatlariga to‘g‘ri kelsa ham o‘zining ijtimoiy xavfli emasligi bilan jinoyat deb topilmaydigan qilmish kam ahamiyatli deb topiladi. Qirg‘iziston jinoyat qonunchiligi xuddi o‘zimizning milliy qonunchilik singari ijtimoiy xavfli bo‘lmagan qilmishni kam ahamiyatli deb hisoblarkan, biroq aynan qanday qilmishlar ushbu turkumga mansubligi ochiq qoldirilgan.

Belorusiya Respublikasining jinoyat kodeksining 11-moddasi 2-qismiga ko‘ra qilmish (harakat yoki harakatsizlik) o‘zida formal jihatdan jinoyat tarkibi alomatlarini aks ettirsa-da, o‘zining kam ahamiyatliligi, ya’ni jinoyatga xos ijtimoiy



xavfli emasligi bois jinoyat deb topilmaydi. Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazmagan va yetkazish xavfi mavjud bo‘lmagan qilmishlar kam ahamiyatli deb e’tirof etiladi. Demak, yuqoridagi normalarni talqin qilish bizga Belorus Respublikasi qonunchiligidagi e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan jihatlar borligidan dalolat beradi, ya’ni jinoyatga xos ijtimoiy xavflilikning yo‘qligi jumlesi ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ko‘pgina huquqshunoslar ham aynan kam ahamiyatli qilmishlardagi ijtimoiy xavflilik masalasida babs olib borganlar.

Kam ahamiyatli qilmishlar tushunchasi bir qator Yevropa davlatlarida turlicha talqin etilgan hisoblanadi. Masalan, Shvetsariya jinoyat qonunchiligidagi kam ahamiyatli qilmish normasi kamdan-kam qo‘llanishi ma’lum bo‘ldi.

Kam ahamiyatli qilmishlar asosan moddiy tarkibli hisoblanadigan, mulkiy jinoyatlarda jiddiy ziyon bo‘lmagan hollarda qo‘llanadi. Demak, ushbu norma xalqaro tajribada ham milliy qonunchiligidagi o‘xshash qirralarni aks etirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ya’ni bizning milliy qonunchiligidagi, Jinoyat kodeksining 36-moddasida ta’kidlanganidek, kam ahamiyatli qilmishda asosan ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jumlesi kiritilgan, bu esa ijtimoiy xavflilik o‘sha qilmish natijasida yetkazilgan zarar bilan o‘lchanishini yuqorida ta’kidlagan edik.

Daniya mamlakatida esa kam ahamiyatli qilmish tushunchasi qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida jazodan ozod qilish asoslari sifatida qaraladi. Bu yerda ham ushbu normaning talqinida milliy qonunchigimizdagi qiyosiy jihatlarni borligiga guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shu o‘rinda bir qator Yevropa mamlakatlarida, masalan, Belgiya, Gollandiya, Ispaniya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi kam ahamiyatli qilmish institutining yo‘qligini ko‘rish mumkin, holbuki, kam ahamiyatli qilmish instituti jazoni yengillashtiruvchi holatlar sifatida ham e’tirof etilmagan.

Daniya jinoyat kodeksining 14 - paragrifida kam ahamiyatli qilmish normasi quyidagicha aniqlangan: “Odatda jazoga sazovor qilmish agarda o‘sha qilmish biror bir shaxsga yoki mol-mulkka zarar yetkazish xavfini oldini olish maqsadida qilingan bo‘lsa, ushbu qilmish jinoyat deb topilmaydi va u kam ahamiyatli deb e’tirof etiladi.”² Ushbu jinoiy-huquqiy norma Daniyada kam ahamiyatli qilmish va jinoyatni istisno qiladigan holatlar tushunchasi bir butunlikni tashkil etishidan dalolat beradi. Buyuk Britaniyada jinoyat tushunchasiga qonunchiqaruvchi tomonidan yagona ta’rif berilmagan, biroq ushbu tushuncha sud qarorlarida o‘z ifodasini topgan.

² https://www.legislationonline.org/download/id/6372/file/Denmark_Criminal_Code_am2005_en.pdf



Angliyada jinoyat tushunchasini quyidagicha talqini keng tarqalgan. Jinoyat sodir etilgan paytda amaldagi qonun bilan jazolanadigan harakat jinoyat deb ataladi. Jinoyat tushunchasini yanda kengroq talqinini ingliz jinoyat huquqiy olimlarining asarlarida uchratish mumkin.

Fransiya jinoyat kodeksida ham jinoyat tushunchasining umumiyligi ta’rifi yo‘q hisoblanadi. Avvalari Fransiya jinoyat kodeksida jinoyatlar faqat jazo turi va miqdoriga ko‘ra turkumlangan bo‘lsa, hozirda esa huquqqa xilof qilmishlar - o‘zining moddiy xususiyatidan, qilmishning og‘irlik darajasi, davlat va jamiyatga yetkazgan zarar darajasiga ko‘ra jinoyat va qonun buzilishlarga ajratiladigan bo‘ldi. Xitoy Xalq Respublikasining avvalgi jinoyat kodeksi 1880-yilda, hozirda yuritilayotgani esa 1997-yilda ishlab chiqilgan. Avvalgi jinoyat kodeksida (1880-yil) dagisida jinoyatlar ikki turga og‘ir va og‘ir bo‘lmaganlarga bo‘lingan. Xitoyning jinoyat qonunchiligi o‘zida jinoyat tushunchasini o‘ziga xos talqinda qo‘llashadi, ya’ni jinoyat kodeksida mavjud bo‘lmasa jinoyat emas va shaxsni bu bilan jazoga tortish mumkin emas. Xitoy jinoyat kodeksining 13-moddasida jinoyatning moddiy tomoni zarar va tajovuz obyektiga ko‘ra aniqlanishi ta’kidlangan. Ijtimoiy xavflilik esa tajovuz obyekti orqali aniqlanadi. Xitoyda “davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va tinchligi, davlatning bo‘linishiga, ijtimoiy va iqtisodiy asoslarni buzishga, shaxslarning shaxsiy va demokratik huquqlariga tajovuz qiladigan qilmishlar jinoyat kodeksida belgilangan bo‘lsa jinoyat deb e’tirof etiladi.

Shuningdek, kam ahamiyatli qilmishlar ham e’tirof etilgan bo‘lib unga ko‘ra shubhasiz, ahamiyatsiz, xavfli bo‘lmagan xatti-harakatlar jinoyat deb tan olinmaydi va bunday qilmishlar tajovuz obyektiga ko‘ra aniqlanadi va kam ahamiyatli qilmishlar deb topiladi. Demak, yuqoridagi davlatlarda ijtimoiy xavflilikning yo‘qligi yoinki ma’lum vaqtida yo‘q deb hisoblanganligi jinoyat qonunchilikning malakalash mexanizmning aniq ishlamaganidan dalolat beradi. Chunki har qanday qilmishning kriminologenligi o‘sha qilmishning ijtimoiy xavfliligiga ko‘ra aniqlanadi.

Kam ahamiyatli qilmishlar masalasini tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan jinoyatlarga ham nisbatan qo‘llasa bo‘ladi degan qarash mavjud, ya’ni jinoytaga suiqasd qilish kabi jinoyatlar tarkibiga ham qo‘llasa bo‘ladi degan qarashlar mavjud. Tamom bo‘lmagan jinoyatlarda jinoyat belgisi bilan kam ahamiyatli qilmishlarda o‘ziga xoslik mavjud hisoblanadi. Aniqrog‘i, u jinoyat uchun tayyorgarlik tarkibiga mos keladigan harakatlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu pozitsiyani butunlay ajratib turadigan bo‘lsak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning noaniqligi asosan obyektiv omillar (tayyorgarlik harakatlarining xavfli tabiat, jinoyatni bajarish ehtimoli



pastligi, jinoyat huquqiy himoya obyektiga haqiqiy tahdid yo‘qligi va boshqalar bilan bog‘liq. Subyektiv xususiyatlari (jiddiy yoki o‘ta jiddiy jinoyat sodir etishga bevosita niyat) kabilar bu yerda asosiy fonga o‘tadi. Boshqacha qilib aytganda, Jinoyat kodeksining 36-moddasini jinoyatga tayyorgarlik tarkibi belgilari bilan harakat qilish uchun uning obyektiv ahamiyatga ega emasligini aniqlash kifoyadir. Shunday qilib, hozirgi vaqtida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish jinoyatini malakalashda jinoiy faoliyatga uni jinoiy qilmish deb reaksiya qilish huquqni muhofaza qilish organlari ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiriladi. Jinoyat kodeksining 36-moddasi qoidalarini qo‘llash imkoniyatlarini tabiiy ravishda cheklaydigan jinoiy-huquqiy muhofaza qilishning eng muhim obyektlariga (hayot, inson yoki umuman aholi salomatligi, davlat xizmatining manfaatlari) tajovuz qilgan protsessual jihatdan tasdiqlangan jinoyatlarga qaratilgan.

Bundan tashqari, u ko‘p holatlarda, tergovga qadar tekshiruv amaliyotida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlari faktlari bo‘yicha hisobotlarni tekshirish jinoyat tarkibi yo‘qligi munosabati bilan jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun rad etish to‘g‘risidagi qaror bilan yakunlanadi, deb yodda tutish lozim, va bunday qarorlar tez-tez kam ahamiyatli qilmishlarga havola bermasdan amalga oshiriladi va ushbu amaliyot uzoq vaqt davomida shakllangan. Bunday qarorlarga esa jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish institutidagi ijtimoiy xavflilik tushunchasini aniq shakillanmaganligiga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. https://www.legislationline.org/download/id/6372/file/Denmark_Criminal_Code_am2005_en.pdf
4. Кудрявцева В.Н. Энциклопедия уголовного права. Состав преступления/Изд. проф. Малинина, 2005.
5. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.